

IKKINCHI SINIF O‘QUVCHILARINI MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH USULLARI

Usmonova Shohida Toxir qizi

O‘zb-Fin PI talabasi

Annotatsiya. Boshlang‘ich ta‘limning ikkinchi sinflarida masalalar yechishda o‘quvchilar bir necha ko‘rinishdagi masalalarga duch kelishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qobliyatini matematik masalalarni yechishga to‘liq shaliklanmagan bo‘ladi. Maqolada o‘quvchilarning sodda va murakkab masalalarni to‘liq o‘rganishlari uchun matnli masalalar yechish yo‘llarini va unda nimalarga e‘tibor qaratish lozimligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zi: Masala, sodda va murakkab masala, bir necha birlik ko‘paytirish, bir necha birlik kamaytirish, Bir, ikki, uch va undan ham ortiq amalli murakkab masalalar.

Ma‘lumki, birinchi sinflarda o‘quvchilar bir va ikki amal bilan yechiladigan masalalar bilan shug‘ullanganlar. Sodda masalalarni yechish uchun yetarlicha tayyorgarlik mashqlarini o‘tkazishgan bo‘lishlari lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

- O‘quvchilar narsalarning rangi, shakli, o‘lchami haqida;
- Narsalarning uzun – qisqaligi, keng – torligi, baland – pastligi haqida;
- Ustida – ostida, chapda – o‘ngda, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga kabi tushunchalar haqida;
- Bir xil, har xil, ko‘p, kam, shuncha marta ortiq, shuncha marta kam tushunchalari;
- Har bir, hammasi, shundan boshqa hammasi tushunchalarining ma‘nosini o‘zlashtirib olishlari zarur.

Shuningdek, bitta yoki bir nechta narsalarni ajratish, Raqamlarning bosma va yozma yozilish shakllarini o‘zlashtirib olishlari bo‘ladi. Ayniqsa o‘n ichida sonlarni o‘rganishda sonlarning katta(>), kichik (<), teng (=) tushunchalarining ma‘nosini va yozilishi belgilarini bilishlarini o‘zlashtirib olishlari kerak bo‘ladi. So‘ngra avval, keyin, oldin, oldinroq, keyinroq tushunchalarini bilishlari va hafta, hafta kunlari, ularning sanog‘i kabi bilimlar bilan tanishishlari kerak.

Geometrik bilimlardan nuqta, to‘g‘ri chiziq, to‘g‘ri chiziq kesmasi, siniq chiziq va egri chiziq tushunchalari bilan ham tanishtiriladi. So‘ngra o‘quvchilarda o‘n ichida sonlarni sanash qobliyatlari hosil qilinishi lozim.

Sodda masalalar boshlang‘ich sinflarda ikki tomondan o‘rganiladi. Ya‘ni, ma‘nosi jihatidan va hisoblash usuli jihatidan o‘rganiladi. Hisoblash usuli sonli misollardagi kabi bajariladi. Masalaning ma‘nosi esa masalalar yechish jarayonida ochib beriladi. Bunday holda sodda masalalarni yechishdan foydalanish foydali

hisoblanadi. Agar masalada bir necha amal bo‘lsa o‘quvchilar bu masalani bir necha sodda masalalarga ajratib yechishlari kerak. Unda o‘quvchilar bir amal bilan yechiladigan turli xildagi sodda masalalarni o‘zlashtirib olishga erishishlari kerak. Masalan qo‘shish amalini o‘quvchilar berilgan sonlarni birlashtirish deb tushunishi mumkin yoki berilgan sonlarni bir necha birlik orttirish deb ham tushunishi mumkin. Ayirish amalini esa berilgan sonni bir necha birlik kamaytirish deb tushunishi mumkin yoki ayirmani topish deb tushunishi mumkin. Masalan:

1. Masala. Olmali yashikning massasi 10 kg, nokli yashik esa undan 3 kg yengil. Nokli yashikning massasinecha kilogramm?

Olmali yashik _____ 10 kg

Nokli yashik _____?, 3 kg yengil _____

Yechish: 1) $10 \text{ kg} - 3 \text{ kg} = 7 \text{ kg}$. Javob: Nokli yashik massasi 7 kg.

2. Masala. Bolalar maktab archasini bezatish uchun 7 ta qizil, undan uchta ko‘p ko‘k o‘yinchoq osishdi. Archaga nechta ko‘k o‘yinchoq osishgan?

Qizil o‘yinchoq _____ 7 ta

Ko‘k o‘yinchoq _____?, 3 ta ko‘p _____

Yechish: 1) $7 + 3 = 10$ ta ko‘k. Javob: Archaga 10 ta ko‘k o‘yinchoq osishgan.

3. Masala. Ertalab do‘konda 16 ta shkaf bor edi. 6 ta shkaf sotildi.

Do‘konda nechta shkaf qoldi?

Do‘konda _____ 16 ta shkaf bor edi.

Sotildi _____ 6 ta shkaf.

Qoldi _____? shkaf.

Yechish: 1) $16 - 6 = 10$ ta. Javob: Do‘konda 10 ta shkaf qoldi.

4. Masala. Birinchi poyezdda 19 ta vagon, ikkinchi poyezdda undan 1 ta ortiq vagon bor. Ikkinchi poyezdda nechta vagon bor?

1-poyezd _____ 19 ta vagon

2-poyezd _____?, 1 ta ortiq _____

Yechish: 1) $19 + 1 = 20$ ta. Javob: Ikkinchi poyezdda 20 ta vagon bor.

O‘quvchilar murakkab masalani yechishda uni sodda masalalarga ajratishlari va ularni ma’lum tartibga qo‘yishlari kerak. Bu ishlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradi va o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stiradi.

Ikkinchi tomondan o‘quvchilar murakkab masalalarni yechish uchun, masalaning mazmunini tashkil etuvchi xodisalarni ko‘z oldiga keltirishi va uni anglashlari lozim. Agar shunday qilaolmasa berilgan masala o‘quvchilar uchun qiyinlik qiladi. Shuning uchun o‘quvchilarga taqdim etiladigan masalalar kundalik turmushni, texnikani, qurilishni, tabiatni yetarli darajada aks ettirishi kerak. Natijada o‘quvchilar masalalar yechish orqali turmushning va tabiatning turli tomonlari bilan tanishadilar.

Ikkinch sinfda o‘quvchilar ikki va uch amalli murakkab masalalarni yechadilar. Bunday masalalar harqancha oson bo‘lsalar ham o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini taraqqiy ettiradi. Shuning bilan birga turmushdan olingan masalalar bo‘lgani uchun o‘quvchilarni turli foydali bilimlar bilan boyitadi. Masalan:

1. Masala. Bir to‘pda 47 m gazlama bor edi. Bolalarga kuylak tikish uchun 17 m, kattalarga ko‘ylak tikish uchun esa 10 m gazlama qirqib olindi. To‘pda necha metr gazlama qoldi?

Bir to‘pda _____ 47 m
 Bolalarga _____ 17 m qirqib olindi.
 Kattalarga _____ 10 m qirqib olindi.
 To‘pda qancha _____ ? qoldi

Yechish: 1) $17\text{ m} + 10\text{ m} = 27\text{ m}$;
 2) $47\text{ m} - 27\text{ m} = 20\text{ m}$.

Javob: To‘pda 20 metr gazlama qoldi.

2. Masala. Bolalar bog‘chasiga 50 kg piyoz va undan 27 kg kam kartoshka olib kelindi. Jami qancha maxsulot bog‘chaga keltirilgan?

Piyoz _____ 50 kg ←
 Kartoshka _____ ? 27 kg kam
 Piyoz, kartoshka jami _____ ?

Yechish: 1) $50\text{ kg} - 27\text{ kg} = 23\text{ kg}$ kartoshka;
 2) $50\text{ kg} + 23\text{ kg} = 73\text{ kg}$. Jami piyoz va kartoshka.

Javob: Jami 73 kg maxsulot keltirilgan.

3. Masala. 39 kg meva bor edi. Murabbo tayyorlash uchun 20 kg, sharbat tayyorlash uchun 9 kg meva ishlatildi. Necha kilogramm meva ortib qolgan?

Bor edi _____ 39 kg meva.
 Murabboda _____ 20 kg ishlatildi.
 Sharbatda _____ 9 kg ishlatildi.
 Qoldi _____ ? Meva

Yechish: 1) $20\text{ kg} + 9\text{ kg} = 29\text{ kg}$;
 2) $39\text{ kg} - 29\text{ kg} = 10\text{ kg}$.

Javob: 10 kg meva ortib qoldi.

4. Masala. Maktabdagi musiqa to‘garagiga 34 nafar, tasviriy san’at to‘garagiga esa undan 16 nafar ortiq o‘quvchi qatnayapti. Ikkala to‘garakka hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi qatnashayapti?

Musiqa to‘garagiga _____ 34 nafar.
 Tasviriy san’at to‘ga. _____ ?, 16 nafar ortiq
 To‘garakka hammasi _____ ?

Yechish: 1) $34 + 16 = 50$ nafar;
 2) $34 + 50 = 84$ nafar.

Javob: Ikkala to‘garakka hammasi bo‘lib 84 nafar o‘quvchi qatnashayapti.

5. Masala. Uchta idishda 95 l benzin bor. Birinchi idishda 40 l, ikkinchi idishda 35 l benzin bo‘lsa, uchinchi idishda necha litr benzin bor?

Bor edi _____ 95 l benzin.

1-idishda _____ 40 l benzin.

2- idishda _____ 35 l benzin.

3-idishda _____ ?

Yechish: 1) $40\text{ l} + 35\text{ l} = 75\text{ l}$;

2) $95\text{ l} - 75\text{ l} = 20\text{ l}$.

Javob: uchinchi idishda 20 litr benzin bor.

6. Masala. Tovuqlarni boqish uchun bir haftada 28 kg don, g‘ozlarni boqish uchun esa undan 11 kg kam don sarflandi. Tovuq va g‘ozlarni boqish uchun necha kilogramm don sarflanadi?

Tovuqlarga bir haftada _____ 28 kg don sarflandi.

G‘ozlar uchun bir haftada _____ ?, 11 kg kam sarflandi.

Tovuq va g‘ozlarga _____ ? sarflangan.

Yechish: 1) $28\text{ kg} - 11\text{ kg} = 17\text{ kg don}$;

2) $28\text{ kg} + 17\text{ kg} = 45\text{ kg don}$.

Javob: Tovuq va g‘ozlarni boqish uchun 45 kg don sarflanadi.

Demak, ikki va uch amalli masalalarni yechishda quyidagi sxemadan foydalanish mumkin:

1. Masalani o‘qish va ma’nosini aytib berish.
2. Masalani yo‘naltiruvchi savollar bilan takrorlash.
3. Masalaning savolini ajratish.
4. Masalani ko‘ngilda yechish va og‘zaki javob berish.
5. Masalaning qaysi birinchi qaysi ikkinchi amal bilan yechilishini

aniqlash.

6. Masalani yechilishini yozish.
7. Masala javobini qisqa va to‘g‘ri jumla bilan ifodalash.

Qo‘shish va ayirishga doir ikki amalli murakkab masalalarga amallarning quyidagi shakl almashtirishlarini ko‘rish mumkin:

1. Hosil qilingan sondan qo‘shish va ayirish amali bilan yechiladigan ikki amalli murakkab masalalar. Masalan: bir bo‘lakda 9 metr, ikkinchi bo‘lakda 8 metr chit bor edi. O‘quvchiga fartuk tikishga 15 metr ketdi. Qancha chit qoldi?

1-bo‘lakda _____ 9 metr chit.

2-bo‘lakda _____ 8 metr chit.

Fartukka _____ 15 metr chit ketdi.

Qancha metr chit _____ ? qoldi

Yechish: 1) $9\text{ m} + 8\text{ m} = 17\text{ m}$;

$$2) 17 \text{ m} - 15 \text{ m} = 2 \text{ m.}$$

Javob: 2 metr chit qoldi.

2. Hosil qilingan sondan ayirish, so‘ngra qo‘shish amali bilan yechiladigan ikki amalli murakkab masalalar. Masalan: Shikafda 78 ta kitob bor edi. Shikafdan 15 ta kitob olindi. So‘ngra 12 ta kitob shikafga qaytarib qo‘yildi. Shikafda endi qancha kitob bor?

Shikafda _____ 78 ta kitob bor edi.

Shikafdan _____ 15 ta kitob olindi.

Shikafga _____ 12 ta kitob qo‘yildi.

Shikafda _____ ? kitob bor

Yechish: 1) $78 - 15 = 63$ ta kitob;

2) $63 + 12 = 75$ ta kitob.

Javob: Shikafda endi 75 ta kitob bo‘ldi.

3. Hosil qilingan sondan ikkita ayirish bilan yechiladigan ikki amalli murakkab masalalar. Masalan: 20 litr benzin oldilar. Birinchi kun 8 litri, ikkinchi kuni 5 litri sarf qilindi. Qancha benzin qoldi?

Bor edi _____ 20 litr benzin.

1- chi kuni _____ 8 litr sarflandi.

2- chi kuni _____ 5 litr sarflandi.

Qoldi _____ ? litr benzin

Yechish: 1) $20 - 8 = 12$ litr;

2) $12 - 5 = 7$ litr.

Javob: 7 litr benzin qoldi.

Bundan ko‘rinadiki, qo‘shish va ayirishga tegishli ikki amalli murakkab masalalarni yechish o‘quvchilarga murakkab masalalarni muvoffaqiyat bilan yechishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar

1. Matematika 1-sinf [Matn]: darslik/L. O‘rinboyeva [va boshq.]. –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021 – 160 b.
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masalalar yechishga o‘rgatish metodikasi Quvonova D Toshkent 2019
3. Boboyev O.P, Shamsiyeva G.F. Matematikadan qo‘shimcha masala,mashq va misollar T: Turon-Iqbol,2017-yil
4. www.ZiyoNet.uz